

## YAN AMON KOMENSKIYNING PEDAGOGIK TIZIMI

**Arabboyeva Nozima, Mamatxonova Nargiza**

Namangan davlat pedagogika instituti, Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti, Texnologik talim  
yo'nalishi, TXT BU 24 guruh talabasi

Namangan davlat pedagogika instituti, ilmiy rahbar

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20200703>

**Annotatsiya:** Yan Amos Komenskiyning pedagogik tizimi jahon ta'lim tarixidagi eng muhim va asosiy tizimlardan biri hisoblanadi. U o'zining "Buyuk didaktika" asarida birinchi bo'lib sinf-dars tizimini ilmiy asoslab berdi. Komenskiy pedagogikada "tabiatga muvofiqlik" tamoyilini ilgari surib, ta'lim-tarbiya jarayoni bolaning yosh va ruhiy xususiyatlariga mos bo'lishi kerakligini ta'kidlagan. Uning "pansofizm" (barchaga barcha narsani o'rgatish) g'oyasi ta'limning demokratik va umuminsoniy xarakterini belgilab bergan bo'lib, insonparvarlik hamda tizimlilik uning pedagogik qarashlarining negizidir.

**Kalit so'zlar:** Pedagogika, sinf-dars tizimi, Buyuk didaktika, pansofizm, tabiatga muvofiqlik, didaktika, ta'lim-tarbiya.

Pedagogika (qadimga yunoncha: παιδαγωγική) — tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Pedagogika institutlari va ayrim boshqa o'quv yurtlarida mutaxassislik dasturi asosida o'rganiladigan o'quv predmeti ham pedagogika deb yuritiladi.

Pedagogika fan sifatida bola tarbiyasining nazariy asoslari bilan shug'ullangan. Zamonaviy pedagogika bolalar bilan birgalikda kattalarning ham o'quv-tarbiyaviy, madaniy hamda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasi bilan shug'ullanishni ko'zda tutadi.

Pedagogika tarbiya jarayonining qonuniyatlari, tarkibi va uni tashkil etish mexanizmlarini tadqiq etadi, tarbiyaviy va o'quv ishlarining mazmuni, tamoyillari, ularni tashkil etish shakl, usul hamda yo'sinlarini belgilab beradi.

Shaxsni tarbiyalash, o'qitish va shakllantirish pedagogikaning asosiy funksiyasi hisoblanadi. Shaxsni tarbiyalash pedagogikadagi asosiy tushuncha sanalib, oila va jamiyatning barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan birgalikdagi faoliyatini anglatadi. Tarbiya yordamida inson shaxsining ma'naviy jihatlarini qaror toptirish ko'zda tutiladi. Dunyoqarash, e'tiqod, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatga doir qarash va ko'nikmalarning shaxs sifatiga aylantirilishi tarbiya yordamidagina amalga oshiriladi. Insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan faoliyat o'qitish tushunchasini ifoda etadi. O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelgusida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi. Tarbiyalash va o'qitish natijasida odamda muayyan shaxs sifatlari shakllantiriladi. Shaxsni tarbiyalash va o'qitish orqali o'zida oldin bo'lmagan ma'naviy-intellektual sifatlarga ega bo'ladi. Bu hol shaxsning umri mobaynida uzluksiz davom etadi va uning rivojlanishiga omil bo'ladi.

Inson va uni shakllantirishga doir fan sifatida pedagogika falsafa, etika, estetika, madaniyatshunoslik, psixologiya, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, demografiya, tarix, adabiyot, tibbiyot, matematika va boshqa fanlar bilan uzviy bog'liq. Pedagogika fani va amaliyoti taraqqiyotida bu fanlarning nazariy asoslari, tadqiqat metodlari, ilmiy xulosalarni aniqlash, tahlil qilish hamda umumlashtirish usullaridan foydalanadi.

Pedagogikada ta'lim va tarbiya jarayonlarining qaysi jihatlarini o'rganishdan kelib chiqadigan bir qancha soha va bo'limlar mavjud. O'qitishning maqsadi, vazifalari, tamoyillari, usullari bilan shug'ullanadigan sohasi didaktikadir. Shaxsning axloqiy sifatlarini tarkib toptirish, unda e'tiqod, dunyoqarash, axloq singari ma'naviy jihatlarini shakllantirish masalalarini pedagogikaning tarbiya nazariyasi va amaliyoti tarmog'i o'z ichiga oladi. Ta'lim-tarbiyani tashkil etish, uyushtirish va uni boshqarish singari tashkiliy-pedagogik ishlar qonuniyati pedagogikaning maktabshunoslik sohasi tomonidan ishlab chiqiladi. Pedagogika hamisha muayyan yoshdagi, ma'lum hayotiy va aqliy tajribaga ega bo'lgan kishilar bilan ish ko'radi. Shuning uchun ham pedagogikaning qonuniyatlarini belgilashda ta'lim-tarbiya oluvchining yosh xususiyatlarini hisobga olish hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Shu sababli pedagogika oila pedagogikasi, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, maktab pedagogikasi, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ta'limi pedagogikasi kabi qismlarga bo'linadi va umumlashtirilgan holda yosh pedagogikasi deb ataladi.

Ayrim o'quv fanlarini o'qitish qonuniyatlari va usullarini o'rgatuvchi metodika (tadris) fanlari ham pedagogikaning sohalari hisoblanadi. Bularga nisbatan didaktika umumiy metodika hisoblanadi va har bir alohida predmeti metodikasi xususiy didaktika sanaladi. Ammo bu xil chegaralanish anchagina shartlidir. Chunonchi, adabiyot o'qitish metodikasi didaktikaga nisbatan xususiy didaktika hisoblanadi, ayni vaqtda, u mumtoz adabiyot tarixini o'rganish metodikasi, chet el adabiyotini o'rganish metodikasi, xalq og'zaki ijodini o'rganish metodikasiga nisbatan umumiy metodika vazifasini bajaradi. Xususiy metodikalar umumiy didaktikaga tayangan va uning nazariy umumlashmalariga asoslangan holdagina rivojlana oladi. Ayni vaqtda, har bir aniq fanga tatbiq etilgan didaktik qonuniyatlar o'sha o'quv predmetini o'qitish tajribasidagi o'ziga xoslik bilan boyitiladi, umumiy jihatlarini konkretlashtiradi, har bir o'ziga xoslikda o'qitishning universal jihatlarini namoyon etadi.

### **"Buyuk didaktika"**

"Buyuk didaktika" — chex pedagogi, faylasufi va ilohiyotchisi Yan Amos Komenskiyning 1627–1638-yillarda yozgan asari bo'lib, 1657-yilda birinchi marta nashr etilgan.

Asar 33 bobdan iborat bo'lib, unda Komenskiy o'qitishning yangi g'oyalarini kiritadi va pedagogikaga inqilobiy o'zgarishlar kiritadi. U o'qitishning sensualistik printsiplarini shakllantiradi va bolaga sezgi orqali qabul qilinadigan narsalar va hodisalar bilan tanishtirish orqali uning ongini boyitishni taklif qiladi.

"Buyuk didaktika"da Komenskiy o'qitishning tizimlilikini ta'kidlab, o'qitilayotgan materialni asosiy qoidalar sifatida qisqacha bayon qilish kerakligini aytadi. U o'qitishda dalillar va misollardan foydalanish kerakligini, ularni qoidalar tizimiga keltirish kerakligini ta'kidlaydi.

Shuningdek, asarda o'qitishning sinf-dars tizimi ham taklif etiladi, bunda o'qituvchi butun sinf bilan hamkorlikda ishlaydi. O'qituvchi o'quvchilarning darslarda faol qatnashishini ta'minlashi va ularni nazorat qilishi kerakligini aytadi.

"Buyuk didaktika" ta'lim kontekstidan tashqari, tabiatdan o'rganishni ham taklif qiladi. Komenskiy o'qitish bolalarning qiziqishlari va hayotiy ehtiyojlariga mos kelishi kerakligini aytadi. Komenskiyning pedagogik nazariyasida ta'lim-o'qitish, ya'ni didaktika katta o'rin egallaydi. Uning didaktikasida tabiiylik metodi asosiy rol o'ynab, bu metodning mohiyati, bolaning yoshini, bilim hajmini, psixologik xususiyatlarini hisobga olib, darsni tabiat borlig'iga moslab o'tishdan iboratdir. «Buyuk didaktika» da didaktik printsiplar berilib, dars jarayonida o'qituvchi qo'llash kerakligi ko'rsatiladi. Komenskiy ko'rsatmalilik printsiplinini nazariy jihatdan isbotlab berdi. U bu printsiplinini faqat ko'rsatib o'qitish usuli tariqasidagina emas, balki barcha sezgi organlarini narsa va

hodisalarni asosli va yaxshi o'zlashtirib olishga jalb etish vositasi tariqasida keng ma'noda to'g'ri tushunadi. Komenskiy onglilik printsiptini o'qitishda ma'no-mazmunini tushunmay, og'zaki yodlashga qarshi chiqadi. «Aql-idrok bilan yaxshi tushunib olingan narsadan boshqa hech bir narsani zo'rlab yodlatmaslik kerak». O'quvchilar «O'rganilayotgan narsa kundalik hayotda qanday foyda etkazishini o'qituvchi yordamida anglab olishlari kerak. Shu bilan hodisalarning sabablarini anglatmoq, har bir narsani to'la tushuntirib bo'lguncha, shu narsa ustida to'xtamoq kerak» deb hisoblaydi.

Komenskiy ta'limning tizimli bo'lishini talab qiladi. O'qitilayotgan material o'quvchilarga asosiy qoidalar tariqasida lo'nda bayon qilinishi kerak. O'qitishda dalillardan xulosalarga, misollardan qonunlarga o'tish, dalillar va misollarni qoidalar tizimiga solib, umumlashirib berish lozim, aks holda hodisalarning tizimsiz uyumi hosil bo'lib qoladi. Konkretndan abstraktga, ya'ni mavhumga osondan qiyinga, umumiydan xususiyga o'tish kerak; avval narsa, ya'ni hodisaga umumiy tushuncha berib, keyin uning turli tomonlarini ayrim-ayrim o'rganish kerakligini ko'rsatadi. Izchillik printsiptida kun, oy, yilga vazifa qo'yish va uni amalga oshirish uchun intilish kerakligi aytiladi. Bunda a) aniq vaqtni belgilash, b) o'qishning bola yoshiga mos bo'lishi v) material izchillik bilan o'rganilishi, ya'ni bugungi material ertagi bilan bog'lanishi va keyingi o'tiladigan materialga yo'l ochish kerak.

Komenskiy materialni mustahkam, asosli o'zlashtirib olishlariga katta ahamiyat berib, «mustahkam asos» vujudga keltirish, o'qitilayotgan narsalarni bir-biriga bog'lagan holda olib borish lozim, deydi. Har bir mavzu qisqa, aniq qoidalar asosida berilishi kerak.

O'tilgan materialni mashq qildirish va takrorlatish o'quvchilarni materialni mustahkam o'zlashtirishiga olib keladi. Takrorlangan dars materiali esda yaxshi saqlanib qoladi. Ovoz chiqarib takrorlashning foydasi ko'pligini ko'rsatadi. Mashqlar o'rnida bir qancha qoidalarni belgilab, takrorlash yo'llarini aniqlab beradi. O'qitishda taqrib bilan tahlilni bir-biriga qo'shib olib borish kerakligini ko'rsatadi.

Komenskiy o'quvchilarning bilish qobiliyatini o'stirishga bilimga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytirishga va ilm ishiga bo'lgan g'ayratini oshirishga intiladi.

### **Sinf-dars tizimi**

Komenskiy o'qituvchi butun sinf bilan jamoa bo'lib ish olib borishini, ya'ni sinf-dars tizimid o'qitishni olib borishni tavsiya etdi. Komenskiy sinfdars tizimini ishlab chiqdi. Dars vaqtida o'tgan darsni qaytarish yangi mavzuni tushuntirish, mustahkamlash, uyga vazifa beri kerakligini ko'rsatdi. Darsni rejalashtirish va olib borish to'g'risida ko'rsatmalar berdi. Har bir darsning o'z mavzusi va o'z vazifasi bo'lishini aytdi. O'qituvchi o'quvchilarning dars mashg'ulotlarida faol qatnashishlarini ta'minlashi, kuzatib borishi, sinfda intizom saqlanishi kerakligini aytdi. O'quv jarayonini tashkil qilishni haddan oshirib yuborib, o'qituvchi bir vaqtda 300 o'quvchi bilan dars olib borishi mumkin, deb hisobladi. O'qituvchi o'ziga yaxshi o'quvchini yordamchi qilib olishi mumkinligini aytdi.

Maktabda o'quv yili va uni o'quv choraklariga bo'lish, ta'tillar berilishini kiritdi. O'quv kunini (ona tili maktabida 4 soat, lotin maktabida 6 soat) belgilab berdi. O'quvchilar maktabga bir vaqtda qabul qilinib, o'qish kuzda (sentyabrda) boshlanishi kerak, deb hisobladi.

Komenskiy darslik qanday bo'lishi to'g'risida qimmatli fikrlar aytib, o'z zamonasi uchun namunali bo'lgan bir necha darsliklar yozdi. O'zining nazariy fikrlarini darsliklarida amalga oshirdi. Darslikda o'quv materiali etarlicha bo'lishi, qisqa, mazmunli, tushunarli, izchil berilishi kerak. Darslik oddiy, bolalarga tushunarli tilda yozilishi, rasmlarga boy bo'lishi kerak. Darslikdagi material muntazam tartib bilak joylashtirilishi, bolalarning yoshiga qarab ravshan bayon etilishi

shart. Komenskiyning «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» va «Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari» darsliklari mashhurdir. «Tillar va hamma fanlarning ochiq eshigi» darsligini o'zining didaktik printsiplariga amal qilgan holda tuzdi. Darslik turli sohalarda bolalar tushuna oladigan bilimlar bilan tanishtiradi.

«Hislar vositasi bilan idrok qilinadigan narsalarning suratlari»ni boshlang'ich bilimlarning bolalar uchun yozilgan ensiklopediyasi deyish mumkin. 150 ta suratlar bilan berilgan qisqa maqolada tabiat haqida (olam, geografiyaga doir, o'simliklar, hayvonlar, inson tanasi haqida), odamning faoliyati haqida (kasb-hunar, qishloq xo'jaligi, madaniyat), ijtimoiy hayot haqida (davlat boshqarmalari, sud haqida) ma'lumotlar beradi.

### **Axloqiy tarbiya. Intizom**

Komenskiy yoshligidan boshlab bolada axloq va odob hosil qilish kerakligini aytdi. Mardlik, o'zini tuta bilish, chidamlilik, vaqt va vaziyat talab qilganida foyda etkazishga tayyor bo'lib turish, burchni ado qilish kabi xislatlarni o'z ichiga olgan fazilatdir. Shu asosiy fazilatlardan tashqari kamtarlik, mo'min-qobillik, kishilarga xayrixohlik, pokizalik, puxtalik, xushmuomalalik, kattalarni hurmatlash, mehnatsevarlik xislatlarini tarbiyalashni ham muhim vazifa deb hisoblaydi.

U quyidagilarni axloqiy tarbiya vositalari deb biladi: a) ota-ona, o'qituvchi, o'rtoqlarining namunasi; b) bolalarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ular bilan suhbatlar o'tkazish; v) bolalarni yaxshi xulqqa o'rgatishda mashqlar o'tkazish, yalqovlik, o'ylamay ish qilishga, intizomsizlikka qarshi kurashish.

Komenskiy intizomning katta ahamiyati borligini ko'rsatib, «Intizomsiz maktab suvsiz tegirmondird» degan chex maqolini keltiradi. O'rta asr maktablarida kaltak vositasi bilan o'rnatiladigan intizomga u qarshi chiqadi. Kaltak, xipchin – qullik qurolidir, deydi. Bolalarga insoniy muomalada bo'lishini aytdi. Intizom: a) o'qituvchining namuna ko'rsatishi, samimiy, ochiq xayrixohligi, b) o'qituvchining bolaga bo'lgan to'g'ri munosabati (agar u bolani sevsa, uning yaxshi bo'lishini istasa, darsi mazmunli bo'lsa, tushuntira olsa intizomlilik vujudga keladi), v) bolani ko'pchilik oldida, o'rtoqlari ichida oqilona maqtash yoki qoralash intizomlilikka olib keladi.

### **O'qituvchining roli va unga qo'yiladigan talablar**

Komenskiy o'z davridagi iste'dodsiz, ma'lumotsiz o'qituvchilarni qattiq tanqid etdi. O'qituvchilikni «er yuzidagi har qanday kasbdan ko'rayuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» deb hisobladi. Bu o'qituvchiga nisbatan yangi ilg'or qarash edi, chunki o'sha davrda o'qituvchilik kasbiga hurmat bilan qaralmas edi. Komenskiy aholining o'qituvchiga hurmat bilan qarashini talab etishi bilan o'qituvchining o'zi jamiyatda muhim vazifani bajarayotganini tushunib olishi va o'z qadr-qimmatini yaxshi bilib olishi lozimligini uqtiradi.

O'qituvchi sof vijdonli ishchan, sabotli, axloqli bo'lishi, o'z ishini sevishni, o'qituvchilarga otalardek muomala qilishi, ularda bilimga havas tug'dirishi lozim. «O'zi» namuna ko'rsatib, o'qituvchilarni o'ziga qapatishi o'qituvchining birinchi vazifasidir, degan edi. Dindorlikni o'qituvchining yaxshi xislati deb biladi.

Shunday qilib, Yan Amos Komenskiy butun dunyoda pedagogika ilmiga asos solib maktabning taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi.

### **References:**

1. Rines, George Edwin, ed (1920). "Comenius, Johann Amos". Encyclopedia Americana.
2. "Univerzita Jana Amose Komenskeho Praha" (cs). Qaraldi: 2019-yil 5-sentyabr.
3. Gilman, D. C.; Peck, H. T.; Colby, F. M., eds (1905). "Comenius, Johann Amos". New International Encyclopedia (1st nashri). New York: Dodd, Mead.
4. "Judy Duchan's History of Speech - Language Pathology". [www.acsu.buffalo.edu](http://www.acsu.buffalo.edu).

5. Yan Amos Komenskiy. Buyuk didaktika (PDF), M.Ochilov tarjimasi, Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1975. Qaraldi: 2025-yil 19-may.